



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
IQTISODIYOT VA MOLIIYA VAZIRLIGI HAY’AT
MAJLISINING BAYONI**

1-noyabr 2025-yil.

5-son

Raislik qiluvchi: **I. I. Norqulov** – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining birinchi o‘rinbosari

Qatnashuvchilar: Hay’at a’zolari (ro‘yxat bo‘yicha).

KUN TARTIBI:

Iqtisodiyot va moliya vaziri o‘rinbosarlarining hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, Toshkent shahri, shuningdek, tuman (shahar) hokimlarining birinchi o‘rinbosarlari faoliyatining 2025-yilning 3-chorak uchun belgilangan samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) ijrosi hamda 4-chorak ijrosi o‘z vaqtida va to‘liq bajarilishini ta’minlash hamda ijro intizomini mustahkamlash to‘g‘risida

(Norqulov, Xaydarov, Sadullayev, Mustafayev, Fazilkarimov, Abidxadjayev Raximova, Annaqulov, Fazilov, Xamdamov, Xudayberganov, Abduraxmonov, hokimliklar o‘rinbosarlari, Norqulov)

Yig‘ilishni Iqtisodiyot va moliya vazirining birinchi o‘rinbosari I. Norqulov ochib, kun tartibidagi asosiy masala O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 13-martdagi PF-49-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 31-iyuldagi 463-sonli va 2025-yil 29-apreldagi 278-sonli hamda 2025-yil 26-iyundagi 389-sonli qarorlari, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 23-oktabrdagi 07-15-17-son (XDFU) xatida belgilangan topshiriqlar ijrosidan kelib chiqqan holda rahbarlar o‘zlari mas’ul bo‘lgan sohalar va tarmoqlar bo‘yicha belgilangan 2025-yil uchun samaradorlik ko‘rsatkichlariga

(KPI) to'laqonli erishilishi va natijadorligi, shuningdek, 3-chorak yakuni bo'yicha topshiriqlar ijrosi yakunlarini tanqidiy ko'rib chiqilishini ma'lum qildi.

Vazirning birinchi o'rinbosari I. Norqulov tomonidan ushbu chorakda vazir o'rinbosarlari hamda hududiy rahbarlar tomonidan faoliyat samaradorligi (KPI) natijadorligi to'liq ta'minlanmaganligi bo'yicha jiddiy e'tiroz bildirildi hamda ko'rsatkichlar ijrosini belgilangan rejadani past bajargan yoki bajarmagan rahbarlarga tegishli jazo choralari ko'rilishi ta'kidlab o'tildi.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining mas'ul xodimi – A. Annaqulov so'zga chiqib, Iqtisodiyot va moliya vaziri o'rinbosarlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari birinchi o'rinbosarlari – iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmalari boshliqlari faoliyatining **2025-yil 3-chorak uchun** belgilangan samaradorlik ko'rsatkichlari ijrosi haqida ta'kidlab o'tdi.

Xususan, **3-chorak yakuni** bo'yicha vazir o'rinbosarlari uchun jami **61 ta** ko'rsatkichlar belgilangan bo'lib, vazirlik umumiy natijadorligi **99,9 foizni** hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari birinchi o'rinbosarlari – iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmalari boshliqlari uchun **80 ta** ko'rsatkichlar bo'lib, umumiy natijadorlik **99,8 foizni** tashkil etganligini aytib o'tdi.

***2-chorak yakuni bo'yicha** vazirlikning umumiy natijadorligi **99,8 foizni** shu bilan birga Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari birinchi o'rinbosarlari - iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmalari boshliqlari **93,2 foizni** tashkil etgan.*

Quyidagilar A. Annaqulov tomonidan ma'lumot sifatida qayd etib o'tildi:

a) **3-chorak yakuni** bo'yicha **vazir o'rinbosarlarining 3 ta** samaradorlik ko'rsatkichlari ijrosi **to'liq bajarilmagan**

– Bozor xizmatlari hajmi o'sishini ta'minlash (ijro - **14 foiz (99%)**);

– Ipoteka kreditlari bo'yicha subsidiya mablag'larini to'lab berish (ijro – **1 710 mlrd so'm (97,7%)**);

– Toshkent viloyatida sanoat o'sishini ta'minlash (ijro - **6 foiz (99,8%)**).

b) **4 ta** hudud **hokimlarining birinchi o'rinbosarlari** tomonidan belgilangan ko'rsatkichlar rejasi ijrosi **past yoki to'liq bajarilmagan**.

– **yalpi hududiy mahsulot hajmi** ko'rsatkichi bo'yicha **Qoraqalpog'iston** Respublikasi (ijro - **36,8 mlrd.so'm (95,5%)**);

– **jami ko'rsatilgan xizmatlar hajmi** ko'rsatkichi bo'yicha **Qashqadaryo** viloyati (ijro – **36,7 mlrd so'm (94,6%)**);

– **budjet tushumlariga qo‘shimcha reja** ko‘rsatkichi bo‘yicha **Surxondaryo** viloyati (ijro – **41,0 mlrd so‘m (92%)**);

– **iste‘mol narxlari indeksi** ko‘rsatkichi bo‘yicha **Farg‘ona** viloyati (ijro – **5,6 foiz (99,9%)**)

v) **9 ta** hududda **36 ta** tuman (shahar) hokimlarining birinchi o‘rinbosarlari tomonidan belgilangan **38 ta** ko‘rsatkichlar ijrosi **past** yoki **to‘liq bajarilmagan**:

– **budjet tushumlari prognozi** ko‘rsatkichi bo‘yicha **10 ta**;

– **budjet tushumlariga qo‘shimcha reja** ko‘rsatkichi bo‘yicha **9 ta**;

– **jami ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi** ko‘rsatkichi bo‘yicha **18 ta**;

– **mahallalarda mikrosanoat markazlarini tashkil etish (G‘ijduvon tajribasi)** ko‘rsatkichi bo‘yicha **1 ta**.

Iqtisodiyot va moliya vazirining birinchi o‘rinbosari I. Norqulov tomonidan yuqoridagi ko‘rsatkichlar bo‘yicha belgilangan rejalarini kelgusida o‘z vaqtida to‘laqonli va sifatli bajarilishi ta’kidlandi.

Shu bilan birga, **joriy yil 4-chorak uchun** Iqtisodiyot va moliya vaziri o‘rinbosarlari uchun umumiy **62 ta** hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, Toshkent shahri hokimliklari rahbarlari uchun umumiy **80 ta** hamda tuman (shahar) rahbarlari uchun umumiy **500 ta** samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) ijrosini ta’minlash belgilanganligi qayd etildi.

Barcha ko‘rsatkichlar ijrosi to‘laqonli bajarilishi va ko‘rsatkichlar ijrosi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni **3-chorak yakuni bilan keyingi oyning 20-sanasisiga qadar “samaradorlik.uz”** platformasiga kiritish choralar ko‘rish zarurligi aytib o‘tildi.

Shundan so‘ng Ijro apparati rahbari o‘rinbosari – boshqarma boshlig‘i F. Xamdamov so‘zga chiqib, davlat rahbari topshiriqlarining ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha axborot berdi.

Tahlillarga ko‘ra, 2025-yilning noyabr oyi davomida vazirlik mas’ul bo‘lgan jami topshiriqlar soni **439 tani (187 tasi asosiy ijrochi)** tashkil etib, shundan **86 tasining (24 tasi asosiy ijrochi)** ijrosi ta’minlandi hamda **353 tasining (163 tasi asosiy ijrochi)** ijro muddati mavjud.

Shuningdek, 2025-yilning dekabr oyi davomida vazirlik mas’ul bo‘lgan jami topshiriqlar soni **2 962 tani (1 054 tasi asosiy ijrochi)** tashkil etib, shundan **391 tasining (86 tasi asosiy ijrochi)** ijrosi ta’minlandi hamda **2 571 tasining (968 tasi asosiy ijrochi)** ijro muddati mavjud.

Shu bilan birga, “Ijro.gov.uz” tizimida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari topshiriqlar alohida nazoratga olinganligini ko‘rsatib o‘tdi.

Xususan:

2025-yilning **noyabr oyi** davomida vazirlik mas'ul bo'lgan jami topshiriqlar soni **104 tani (38 tasi asosiy ijrochi)** tashkil etib, shundan **6 tasining (2 tasi asosiy ijrochi)** ijrosi ta'minlandi hamda **98 tasining (36 tasi asosiy ijrochi)**;

2025-yilning **dekabr oyi** davomida vazirlik mas'ul bo'lgan jami topshiriqlar soni **159 tani (46 tasi asosiy ijrochi)** tashkil etib, shundan **5 tasining** ijrosi ta'minlandi hamda **154 tasining (46 tasi asosiy ijrochi)** ijro muddati mavjud.

Yig'ilishda, temir intizomni ta'minlash barcha rahbarlarning kun tartibidagi birinchi vazifasi bo'lishi shart ekani belgilandi hamda noyabr-dekabr oyida bajarilishi lozim bo'lgan topshiriqlarning har birini vazir o'rinbosarlari tegishli tuzilma rahbarlari bilan birgalikda atroflicha muhokama qilib, ularni o'z vaqtida va sifatli bajarish bo'yicha zaruriy choralar ko'rilishi belgilab olindi.

Vazirlik tizimidagi barcha rahbarlarning samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) ijrosini o'z vaqtida to'liq va sifatli bajarish va ijro intizomini mustahkamlash maqsadida yig'ilish,

QAROR QILADI:

1. Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 23-oktabrdagi 07-15-17-sonli (XDFU) topshirig'i ijro uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 29-apreldagi 278-sonli hamda 2025-yil 26-iyundagi 389-sonli qarorlariga asosan, vazirlik markaziy apparatining tegishli tuzilmalari, mahalliy hokimliklarning mas'ullari tomonidan vazir o'rinbosarlari va hokim o'rinbosarlarining **4-chorakda belgilangan** barcha samaradorlik ko'rsatkichlari ijrosi so'zsiz bajarilishi lozimligi ko'rsatib o'tilsin.

3. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar kengashi raisining, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlarining birinchi o'rinbosarlari **10 kun muddatda:**

joriy yilning 3-choragida belgilangan reja ijrosini ta'minlamagan tuman (shahar)larga chiqib, mas'ullar bilan tanqidiy muhokama qilsin hamda muhokamalar natijasi bo'yicha ma'lumotlarni;

yil yakuni bilan barcha belgilangan prognoz ko'rsatkichlariga erishish bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar kengashi raisining, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlarining birinchi o'rinbosarlari uchun tuman (shahar)lar kesimida **chora-tadbirlar rejasini**, tuman (shahar)lar hokimlarining birinchi o'rinbosarlari uchun mahallalar kesimida **ish rejalari**ni har bir ko'rsatkich bo'yicha ishlab chiqib tasdiqlasin hamda vazirlikka taqdim qilsin.

Shuningdek, belgilangan topshiriqlar ijrosini kelgusida to'liq va sifatli bajarilishi yuzasidan **zaruriy choralar ko'rsin**.

4. **Jizzax, Namangan, Sirdaryo, Surxondaryo** viloyatlari va **Toshkent shahri** hokimlarining birinchi o‘rinbosari – iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmalari boshliqlari joriy yilda **ketma-ket uch chorak** yakunlari natijalariga ko‘ra, **jami ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi** bo‘yicha belgilangan prognoz ko‘rsatkichini bajarmay kelayotganligi uchun:

- **Jizzax** viloyatining **Zomin, Mirzacho‘l, Zafarobod, Zarbdor** tumanlari;
- **Namangan** viloyatining **Uychi** tumani;
- **Sirdaryo** viloyatining **Yangiyer shahri, Guliston, Sayxunobod** tumanlari;
- **Surxondaryo** viloyatining **Boysun** tumani;

– **Toshkent shahrining Yashnobod va Bektemir** tumanlari hokimi birinchi o‘rinbosarlari – iqtisodiyot va moliya bo‘linmalari boshliqlariga **intizomiy jazo** chorasini qo‘llash yuzasidan yuqoridagi tuman hokimliklariga taklif kiritsin hamda natijasi bo‘yicha **Vazirlar Mahkamasiga** axborot bersin.

5. “Ijro.gov.uz” tizimida joriy yil noyabr-dekabr oylarida barcha topshiriqlarni, shu jumladan, asosiy ijrochi bo‘lgan topshiriqlarga alohida e‘tibor qaratgan holda o‘z vaqtida va sifatli bajarish yuzasidan quyidagi zaruriy choralar ko‘rilsin:

a) 2025-yil noyabr-dekabr oylari uchun belgilangan topshiriqlarning **kunbay nazorat rejalarini** tanqidiy tahlil qilgan holda har bir topshiriq ijrosiga mas‘ul tegishli tarkibiy tuzilma rahbarlarining shaxsiy mas‘uliyatini oshirish yuzasidan qo‘shimcha kompleks chora-tadbirlarni belgilagan holda tasdiqlangani ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin:

Bunda, Iqtisodiyot va moliya vazirligi bo‘yicha “**Ijro.gov.uz**” elektron tizimidagi ijro muddati 2025-yil noyabr-dekabr oylariga belgilangan topshiriqlar ijrosini kunlik tashkil etish bo‘yicha “**Kalendar grafigi**” 1-2-ilovalariga va “**Yo‘l xaritasi**” 3-4-ilovalariga muvofiq tasdiqlansin.

b) vazirlik markaziy apparat tarkibiy tuzilmalari, vazirlik huzuridagi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va tasarrufidagi tashkilotlarning birinchi rahbarlari ijro intizomini ta‘minlash borasida qat‘iy nazorat o‘rnatilishini ta‘minlasin;

d) joriy yilning noyabr oyida “**Ijro.gov.uz**” tizimida nazoratga olingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari, Vazirlar Mahkamasi, Hukumat komissiyasi va Hisob palatasi topshiriqlarini **noyabr oyining 24-sanasiga qadar to‘liq bajarilishini ta‘minlasin;**

joriy yilning dekabr oyida “Ijro.gov.uz” tizimida nazoratga olingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari, Vazirlar Mahkamasi, Hukumat komissiyasi va Hisob

palatasi topshiriqlarini **dekabr oyining 15-sanasiga qadar to'liq bajarilishini ta'minlasin.**

Bunda tegishli tarkibiy tuzilma rahbarlari noyabr-dekabr oylarida ishlab chiqilishi belgilangan normativ-huquqiy hujjat loyihalarini har tomonlama puxta, barvaqt va yuksak professional darajada tayyorlash, kelishuvni jadallashtirish, vakolatli organlar bilan hamkorlikni kuchaytirish hamda o'rnatilgan tartibda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasiga kiritilishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratsin.

6. Tashkiliy ishlar va ijro intizomi boshqarmasi (F. Xamdamov) ijro intizomi talablariga rioya qilinishi va topshiriqlar ijrosi belgilangan muddatlarda ta'minlanishi yuzasidan doimiy nazorat olib borsin.

7. Mazkur bayon topshiriqlarining o'z vaqtida va to'liq bajarilishini ta'minlashni o'z zimnamda qoldiraman.

Hay'at raisi



I. Norqulov